

YUSUF SHOMANSUR IJODIDA USTOZLAR YODI

T. A. Jarkinova*Magistr, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti***ARTICLE INFO.****Kalit so'zlar:**

havaskor, adabiy muhit, to'garak, san'at, iste'dod.

Annotatsiya

Xalqimizda: "Ustoz ko'rmagan shogird - har maqomga yo'rg'alar", - degan naql bor. Yusuf Shomansurning adabiyot maydoniga kirib kelishi, iste'dodli shoir sifatida tanilishida ustozlarining o'rni beqiyos. Maqolada shoir, yozuvchi Yusuf Shomansur ijodining shakllanishida ustozlarining o'rni, ular bergan adabiy saboqlarning ahamiyati tahlil etilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Shoir, yozuvchi Yusuf Shomansurning o'zbek adabiyotida o'z ovozigga ega bo'lishida, "men"ni namoyon etishida ustozlarning o'rni beqiyos. Ijodkor har vaqt ustozlariga bo'lgan ehtiromini qalbida saqlab kelgan. Ustozlariga bo'lgan mehrini she'rlarida jilolantirgan. O'quvchilik chog'idayoq G'ayratydek murabbiydan adabiyotning sirli olamini kashf etishni o'rganadi. Zero, shoirning o'zi ham "Guliston" jurnalida chop etilgan "Biz G'ayraty to'garagidanmiz" maqolasida: "Ijodda havaskorlik davri ancha qaltis davr. Odamning ham o'ziga o'zi ishonib yetmaydigan payti. Shuning uchun ustozlar hamma vaqt hal qiluvchi o'rin tutadilar. Havaskorga noto'g'ri munosabatda bo'linsa, durust iste'dod ham ro'yobga chiqmay qolib ketishi. Yoki mutlaqo talantsiz kishining adabiyotga "kirib" qolishi, o'zini ham, boshqalarni ham umrbod qiynab yurishi mumkin", - deya alohida ta'kidlaydi. Ana shunday adabiyot olamiga qadam qo'ygan havaskor uchun G'ayratydek shoirdan saboq olish ulkan baxt edi. G'ayratyning matonati, shijoatiga shunday baho beradi:

Oddiy to'garakning shunchalik mavqeyi nimada edi. O'ylashimcha, avvalo, gap ustoz G'ayratyning havaskordan havaskorni farq qila bilish iqtidorida. U kishi dilida talent uchquni bo'lmagan biror havaskorni shoir qilib qo'ygan yo'q. U yoshlarning o'zida bor iqtidorning yuzaga chiqishiga yordam berdiki, shuning o'zi katta san'atdir.¹

Shuning uchun ham ustoz G'ayraty rahbarligidagi to'garakdan Erkin Vohidov, Xayriddin Saloh, To'lqin, Yusuf Shomansur kabi iste'dodlilar yetishib chiqdi. Ular domladan oliyjanoblikni, halollikni o'rganishdi.

Shoir ijodining shakllanishi bu bilan yakunlanmadi. Keyinchalik taqdir uni Maqsud Shayxzodadek ulug' ijodkor bilan uchrashtirdi. Maktabni tugatgach, "Sharq yulduzi" jurnali redaksiyasiga ishga kiradi. Kunduzi ishlab, kechasi Toshkent davlat pedagogika institutining kechki bo'limida o'qiydi.

¹ Yusuf Shomansur. Biz G'ayraty to'garagidanmiz// "Guliston" jurnali, 1975.

Bu o'quv dargohida uni otashin shoir va alloma Maqsud Shayxzodaning joziba kuchi o'z bag'riga tortdi. Yusuf ustozdan maroqli leksiyalar tinglabgina qolmay, balki u rahbarlik qilgan adabiyot to'garagining faoli ham bo'ldi. Bu yerda u bilan Xayriddin Salohning do'stlik rishtalari yana ham mustahkamlandi. Ikki ajralmas do'stni hatto Hasan-Husan deb atay boshladilar. Shayxzoda bu ikki yosh shoirni shunday unvon bilan atar ekan, ular hayotining mushtarak qismat bilan tugashini bilmas edi, albatta. U har ikki polaponga ayri-ayri mehri ko'rsatib, ularni uzoq oylar mobaynida parvozga shayladi. Nihoyat, Yusuf 1960-yilda institutni tugatibgina qolmay, o'zining ilk she'rlar to'plamini nashr etishga ham erishdi.²

Maqsud Shayxzodadek ustoz qo'lida saboq olishga musharraf bo'lganligi uning baxti bo'ladi. Ustozining she'riyatidagi harorat uni maftun etadi. Asarlaridagi fasohatdan bahra oladi. She'riyatning sirlarini o'z gacha nigoh bilan kashf qilishni o'rganadi. Shoir Yusuf Shomansur ustozini alohida mehri bilan eslaydi:

Men, Yusuf Shomansur, 1955-yildan to 1960-yilgacha bo'lgan o'qish davrida domladan hech tunganmas saboq oldim. Faqat dars yoki adabiyot to'garagi mashg'ulotlari vaqtida emas, domla Shayxzoda bilan suhbatlashgan har bir daqiqada biror foydali fikr, qiziqarli naql, hech bo'lmaganda ohori to'kilmagan, Ustozga xos yangi bir ajoyib iborani eshitish mumkin edi.

1955-yil. O'quv yilining birinchi soatlari. Birinchi bor domlaning darslarida bo'lishim.

Domla ma'ruza boshlashdan avval ro'yxat bo'yicha har birimizni nomma-nom chaqirib, tanisha boshladilar.

- Ismingizning ma'nisini bilasizmi, nima? – deb so'radilar domla har bir talabadan. So'ng o'zlari har bir ism, familiyaning lug'aviy ma'nosini, kelib chiqish tarixini tushuntirib berdilar.

Domla:

- Saidalixo'jayeve! – dedilar navbatdagi familiyani o'qib. Mashhura degan qiz iymaniygina o'rnidan turdi. - Buncha noinsof bo'lmasangiz? – dedilar domla qadrdon ko'zoynaklarini o'ng qo'llarida sal silkib.

Hammamiz hayron edik, ayniqsa, Mashhura lol bo'lib qoldi.

- Ham Said, ham Ali, ham Xo'ja... Shuncha nomni bir o'zingiz egallabsiz, qanday qilib ko'tarib yuribsiz? Og'irlik qilmaydimi?

Butun auditoriya sharaqlab kulib yubordi. Domlaning o'zlari ham nim tabassum qildilar-da, Mashhuraning familiyasidagi so'zlar ma'nosini tushuntirib berdilar. So'ng shu munosabat bilan mumtoz adabiyotimizda an'ana bo'lgan taxallus haqida uzoq vaqt qiziqarli qilib so'zlab berdilar.

Domla suhbat davomida talabalarning qayerda turishi, u turgan joyning nima uchun shunday atalishi bilan qiziqdilar. Ayniqsa, toshkentliklarning gapini berilib tingladilar, "Kazbek" papirosining qutichasiga nimalarnidir yozib oldilar. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, Shayx aka "Toshkentnoma"ga material to'playotgan ekanlar. (Doston bitgach, bizga hammadan ilgari o'qib berganlar.)

Men she'riyatda, ayniqsa, bolalarga she'r yozishda o'sha vaqtda qalamimni bir oz pishitib olgan bo'lsam-da, ko'pchilik do'stlarimga qaraganda qiziqqon, jizzakiroq edim. Bir kuni to'garakda bo'lib o'tgan bir voqeadan so'ng o'zimni ancha bosib oldim. To'garak boshlanishi bilan bir qiz she'r o'qidi, keyin muhokama boshlandi. Bu qiz o'qigan she'r o'ziniki emasdi, kattaroq bir shoirning she'ri edi.. Hali domla: "Qani, kim gapiradi?" – demaslaridan men o'rnimdan turib ketdim. Qizni ko'chirmachidan

2 Karimov. N. Yusuf Shomansur haqida. So'zboshi. Yusuf Shomansur. Men o'tkazmagan daraxtlar. - T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. 4-5-bet.

olib ko'chirmachiga soldim, "tekinxo'r" deb rosa ko'pirib gapirdim. Domla esa, odatdagidek, ko'zoynakni qo'lga olib, o'sha she'rni o'qib chiqdilar-da, muloyimlik bilan qizga qaradilar. Mening taraqa-turuq so'zimdanda keyin o'zini yo'qotgan, yuzlari yangi olovdan chiqqan temirday qizib, kizarib ketgan qiz asta yengil tortdi.

➤ Shomansur akamning o'g'illari, siz unaqa dag'dag'a qilmang shoiramizga, - dedilar domla yumshoqqina qilib. – Balki singlimiz bizni sinamoqchi bo'lganlar, shundaymi?

Qiz otalaricha egilib gap so'ragan ustozga quvonch bilan: "shunday, shunday", - deb yubordi. Yengil, beozor kulgi ko'tarildi.

Mashg'ulot tugagach, Shayxzoda domla menga alohida nasihat qildilar:

➤ Uka, hoziroq birov sizga shu she'rni shu qiz nomidan bosib chiqargin", deb qistayotgani yo'q-ku. Bunaqa qattiq gapirmasligingiz lozim edi. Chunki u qiz nima qilsa ham adabiyotni yaxshi ko'radi. Yoshlik qilgan, birovning she'rini ko'chirib kelib. Aslida, biror kitobni titib, biror she'rni ko'chirib olib o'qish ham she'riyatga mehri borligini ko'rsatadi. Biz esa shu mehri parvarish etishimiz lozim. Shundaymi, mulla Shomansur o'g'illari?

Men boya to'garakda o'rtoqlarim ichida qizarganimdan battar hijolat chekdim.

Domla yelkamga qoqib. "pishiysiz", - dedilar-da, dekanatga o'tib ketdilar...³

Maqsud Shayxzoda saboqlari nafaqat ijodda, balki hayot yo'llarida ham qo'l keladigan xazina edi. Buyuk allomaning ulkan, yaxshiliklarga to'la yuragi shogirdlariga so'nmas mehr ulashib turardi. Shoir ustozini bilan har vaqt hamnafas bo'lgan. Ijod chashmasidan umrining so'ngigacha bahramand bo'lgan. Yusuf Shomansur 1965-yilda Moskvadagi Oliy adabiyot kursiga o'qishga ketadi. Maqsud Shayxzoda ham 1966-yil iyul oyining so'nggi kunlarida toshkentlik shifokorlarning tavsiyasiga ko'ra Moskvaga davolanish uchun boradi. O'rmonning o'rtasida joylashgan Kreml xastaxonasida yurak va jigar kasalliklarini davolatadi. Shifoxonada ham uni doktorlar va hamshiralar oliyanoblighi, shirinso'zligi uchun yaxshi ko'rib qoladi. Ular bilan xayrlashib, sentabrning Moskva shahridagi "Metropol" mehmonxonasida joylashadi.

Yusuf Shomansur Ustozining Moskvada davolanayotganligini Toshkentga ta'tilga borgan vaqtida eshitadi. So'ngra qaytishi bilanoq uni qidirib topadi. Ustozini har kuni ziyorat etib turgan shogird shunday xotirlaydi:

"Hali og'ir kasallikning asorati sezilib turardi. Qovoqlari salqigan, ko'zlari horg'in ko'rinardi. Ammo dardni ortiqcha pisand qilmay, kuniga bir-ikki she'r yo "Beruniy" fojiasidan bir sahifa yozar edilar. Hech bo'lmaganda, bir kitob o'qib tushirar yo meni biror yangi spektaklga boshlab olib borar edilar. Vrachlar Moskvadan bir necha kilometr naridagi, Shchyolkovo qishlog'idagi sanatoriya yo'llanma berishganda ham, Shayx aka uch-to'rt kungacha shaharda yuraverdilar. Oxiri Shchyolkovoga men kuzatib qo'yadigan bo'ldim. Xuddi shu kuni domla to'qson jildlik mashhur bir eski lug'atga yozildilar. Og'ir kasal holatdagi odamning ma'rifatga tashnaligi meni hayratda qoldirdi".⁴ Darhaqiqat, buyuk shoir shogirdini har vaqt hayratga solgan. Matonati, ilmga tashnaligi bilan hayot yo'llarida yo'l ko'rsatuvchi mahorat maktabi vazifasini bajargan. Oltmish oltinchi yillarda ustozining xasta holini tasvirlab shunday she'r yaratadi:

Oltmish oltinchi yilning oktabrida

Moskvada ko'rishdim ustozim bilan.

Oqshomlari sayr etdik kuz yomg'irida,

Shchyolkovo o'rmonlarin yashil bag'rida,

³ Karimov N. Maqsud Shayxzoda. Ma'rifiy-biografik roman. – T.: "Sharq", 2009, 221-bet.

⁴ O'sha kitob. 307-bet.

Suhbatimiz obod she'r, nazm bilan.

Goh to'satdan tutardi miya sanchig'i,
 Suyalgancha qolardi domla qayinga.
 Jon deganing qasdida shum ajal tig'i,
 "Tuzukmisiz, domlajon?" – ustoz dard chog'i
 "O'zlaridan so'rasak", - deyardi menga.

Bir qo'lida xapdori, bir qo'lda qalam,
 Keyin oppoq tonggacha yozar edi she'r.
 Yonoqlari oqarar oq qog'ozdan ham,
 Ammo dardni yengardi rahmsiz ilhom,
 Tirik sichqondan afzal o'lik arslon, sher.

Kasalxonadan chiqqan domla Shayxzoda
 To'g'ri keldi Kuznets ko'prigi tomon.
 - Shomansur o'g'illari, - dedi, - dunyoda
 To'qson jildli kitob bor noyob, ziyoda,
 Mutolaa etmoqlik yurakda armon.

Kitobxonaga kirsak, o'sha lug'atga
 Xardorlarni yozardi nozanin bir qiz.
 Domla der: "Lutfan qo'shing meni navbatga
 Va lutfan yo'llang uni tezroq Toshkantga,
 Yetmish yetti yil tursin shundoq... husningiz..."

O'lim oldida shoir qo'shiq aytsa shod,
 To'qson jildlik kitobga ketsa talpinib.
 Bo'g'zida jon talashsa ajal va ijod,
 Jangmasmi bu? Olovga, o'qqa na hojat,
 Atalmasmi bu hayot qahramonlik, deb?⁵

She'rda ilmga, ma'rifatga tashna ustozning buyuk siymosi gavdalangan. Dardni, o'limni pisand etmas buuk iste'dod ilhom elchilari oldida hamisha asir. So'nggi armoni ham mutolaa qilmoqlik. Shogird ustozini "Shomansur o'g'illari", "O'zlaridan so'rasak" kabi murojaatlarida otadek mehribon, ilmsevar inson qiyofasida tasvirlaydi. Ustoziga bo'lgan ehtirom, so'zlarida balqib turuvchi hayrat shoirni har vaqt ijod osmonida yuksalishga undagan. Inson sifatida kamtarlikka chorlagan.

"Bepoyon koinot bo'ylab sochilgan sayyoralaridan to yirik yulduzlarga qadar o'z yo'ldoshlari bo'ladi. Bu yo'ldoshlar bir zamonalar shu yulduzlar va sayyoralar bag'ridan uzilib chiqqan yoxud ularning tortishish kuchiga dosh berolmagan uchar jismlar hisobiga hosil bo'lgan. Bu yo'ldoshlar o'z

⁵ O'sha kitob. 309-bet.

sayyoralaridan tinimsiz kuch va madad olgan holda ular atrofida parvoz etadilar”, - deganlarida professor Naim Karimov haq edilar. Ular haqqoniy ta’rifni bera olgan edilar. Yusuf Shomansur ham Ulkan shoir atrofida aylanuvchi yo’ldosh, ustozidan kuch oluvchi ijodkor.

Buyuk dahoning mehridan, matonatidan bahramand bo’lib shakllangan Yusuf Shomansur serqirra ijodkor bo’lib yetishdi.

Iste’dodi shakllanishida poydevor qurib bergan ustoz G’ayratiy domlani, metin devorlar bilan ijod binosini qurishda yo’l ko’rsatgan Maqsud Shayxzoda domlani har vaqt ehtirom bilan tilga oldi. Ularning vafoti qalbini junbushga keltirdi.

G’ayratiy xotirasiga bag’ishlab yozgan “Murabbiy” she’rida ustoziga bo’lgan ehtirom, sadoqat jilosini ko’ramiz:

Qahramonga qo‘yarlal haykal,
 Buyuklar ham boqar marmardan.
 Xonandadan qolgan kuy, g‘azal
 Tolmas
 mangulikka safardan.
 Ustozlar-chi?
 Ularning misga
 O‘yilmasdan qolsa goh nomi,
 Baribir g‘am tushmagay bizga:
 Shogirdlari – umrin davomi.
 Har bir shogird – bir tirik haykal
 Orttirarkan yangi shogird, kuch,
 Abadiylik shu-ku mukammal,
 Yodgorlikka hojat bormi hech!
 O‘lmaslikning shu xili go‘zal.
 Ayriliqning alami ammo
 Yuraklarni ezgandan ezar,
 Yupatolmas mangulik hatto.

Shogirdlikning shunisi... og‘ir.

Ustozning nomi aslo o‘chmaydi. Shogirdlar bor ekan, ijod sirlarini o‘rgatgan murabbiyning nomi barhayot. Shoir shuni anglab yetadi, shu yo‘lda intiladi. Biroq shogird uchun ayriliqning alami kuchli.

Yusuf Shomansurning ijod va hayot yo‘llarida ustozlik bayrog‘ini qo‘liga olgan Maqsud Shayxzodaning vafoti esa shoirni butkul o‘rtaydi:

Dunyodan o‘tdimi Shayxzoda ustoz,
 Muncha shoshilmasa do‘stin yoniga?
 Ajalning ikkala panjasi bexos
 Chang solgan ekanmi ular joniga?

Iddaolar bilan qismatni so‘roqqa tutayotgan shogird uchun ustozidan ayrilish azobli. Lekin u nafaqat ustozining, balki o‘zining she’rlarida ustozining nurli qiyofasini ko‘radi, nafasini sezadi. Demak, ustozining kabi shogirdlar, xalqi uchun har vaqt tirik:

To‘kis etay deya bir kam olamni

Olamdan o‘tdingiz bir kam oltmishda.

Sehrlab ketdingiz so‘zni,

Qalamni,

Tiriksiz hayotda,

Xayolda, tushda...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov N. Maqsud Shayxzoda. Ma’rifiy-biografik roman. – T.:”Sharq”, 2009.
2. Karimov. N. Yusuf Shomansur haqida. So‘zboshi. Yusuf Shomansur. Men o‘tkazmagan daraxtlar. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
3. Yusuf Shomansur. Biz G‘avratiy to‘garagidanmiz// “Guliston” jurnali, 1975.- №4